QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 13-noyabr | 372-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasining ortiq bajarilgan qismi hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Quyidagilar:

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayevning O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qo‘riqlash boshqarmasi tomonidan Qo‘ng‘irot tumani hokimligi imoratida shartnomaga asos qo‘riqlash xizmatlari amalga oshirilishi natijasida kreditor qarzdorlik yuzaga kelganligi;

ushbu yuzaga kelgan kreditor qarzdorlikni qisman to‘lab berish uchun jami 100 000 000 (bir yuz million) so‘m mablag‘ ajratish zarurligi to‘g‘risidagi;

ushbu qarzdorlikni to‘lab berishga yo‘naltirilishi belgilangan mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy budjetining 2024-yil 3-chorak daromadlar rejasining ortiq bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni tuman hokimligining tegishli g‘azna hisob-raqamiga ajratilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) bilan birgalikda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha shartnomalar tuzishda tovar (ish, xizmat)lar

narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga hamda narx-navoni haqiqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) hamda bosh hisobchi (Qaldibayev) shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyatiga mazkur qarorni tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**